L. I. Kofler va Yu. P. Kashirina kameral soliq tekshiruvining maqsadi haqida ham alohida fikr bildiradilar. Ularning ta'kidlashicha, kameral soliq tekshiruvining asosiy vazifasi soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha soliqlarning to'lanmagan summalarini undirish, shuningdek soliq tekshiruvlarini samarali tashkil etish uchun zarur axborot bazasini shakllantirishdan iboratdir⁵.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur iqtisodchi olimlar kameral soliq tekshiruvini amalga oshirish jarayonida bir qator muhim bosqichlarni ajratib ko'rsatadilar. Jumladan, soliq hisob-kitoblarining soliq organlariga o'z vaqtida taqdim etilganligini tekshirish, hujjatlarni rasmiylashtirishning to'g'riligini vizual tarzda baholash, soliq hisobotlarining to'liq va aniq to'ldirilganligini aniqlash, rekvizitlar hamda ularni to'ldirishning to'g'riligini tekshirish, soliq hisob-kitoblarining to'g'ri tuzilganligini tahlil qilish, shuningdek soliq stavkalari va soliq imtiyozlaridan foydalanishning asosligini hamda soliq solinadigan bazani hisoblashning to'g'riligini tekshirish kabi bosqichlar kameral soliq tekshiruvining samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi, deb hisoblaydilar⁶.

Shuningdek, mazkur mualliflar soliq tekshiruvlarining boshqa shakllarini ham ko'rsatib o'tadilar. Xususan, tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ma'lum vaqt davomida soliq qonunchiligiga rioya etilishi nuqtayi nazaridan o'rganishga qaratilgan kompleks soliq tekshiruvlari hamda tashkilot faoliyatining muayyan yo'nalishida soliq qonunchiligiga rioya etilishini moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baholashga qaratilgan tekshiruvlar maqsadli soliq tekshiruvlari sifatida talqin etiladi.

Soliq nazorati masalalarini chuqur o'rgangan olimlardan biri N. Shestakova hisoblanadi. Uning ilmiy qarashlari soliq nazorati tizimini nazariy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Olim soliq nazoratiga quyidagicha ta'rif beradi: "Soliq nazorati — bu soliq qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish, soliq huquqbuzarliklarini aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan usullar va texnikalar majmuini o'z ichiga olgan, vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan maxsus faoliyatdir⁷."

- 1 Мировник С.В. и др. Актуальные вопросы правового обеспечения налогового контроля // Теория и практика общественного развития. — 2015. — №19.
- 2 Ковлер Л.И., Каширина Ю.П. Налоговые проверки: виды, порядок проведения и оформления результатов // Территория науки. — 2017. — №1.
- 3 O'sha manba.
- 4 Мировник С.В. и др. Актуальные вопросы правового обеспечения налогового контроля // Теория и практика общественного развития. — 2015. — №19.
- 5 Ковлер Л.И., Каширина Ю.П. Налоговые проверки: виды, порядок проведения и оформления результатов // Территория науки. — 2017. — №1.
- 6 O'sha manba.
- 7 Шестакова Н.Н. Налоговые проверки в системе налогового контроля // Социально-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ. — 2018. — №1.



Muallif soliq nazoratini keng va tor ma'noda talqin qiladi. Keng ma'noda soliq nazorati soliq qonunchiligining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan davlat faoliyati sifatida qaraladi. Tor ma'noda esa u yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish yoki ularni kamaytirish, shuningdek soliq tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan chora-tadbirlar majmui sifatida izohlanadi. Shestakovaning fikriga ko'ra, soliq nazoratining asosiy maqsadi soliq qonunchiligi buzilish holatlarini aniqlash, ularga chek qo'yish, soliqlar va yig'imlarning o'z vaqtida hamda to'liq to'lanishini ta'minlash, shuningdek amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tekshirishdan iboratdir⁸.

N. Shestakova o'z tadqiqotlariga asoslanib, soliq tekshiruvlarini davlat soliq xizmati tomonidan amalga oshiriladigan soliq nazoratining eng samarali shakllaridan biri sifatida baholaydi. Muallif soliq tekshiruvlarini kameral va joyida (sayyor) tekshiruvlarga ajratadi. Uning fikricha, kameral soliq tekshiruvlari soliq organlarida o'tkaziladi va barcha soliqlar bo'yicha taqdim etilgan hisobotlarni tahlil qilishni qamrab oladi. Sayyor soliq tekshiruvlari esa soliq to'lovchilarning faoliyat yuritish hududida o'tkazilib, asosan taqdim etilgan deklaratsiyalar hamda moliyaviy hujjatlarning to'g'riligini tekshirishga qaratiladi.

Olimning ta'kidlashicha, soliq tekshiruvlarining asosiy maqsadi soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishdan iboratdir. Shu bilan birga, kameral soliq tekshiruvlari soliq nazoratining eng keng tarqalgan shakllaridan biriga aylanib borayotganligini qayd etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq nazoratini tashkil etish va uni yanada takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: soliq organlari va korxonalar o'rtasida o'zaro hamkorlikka asoslangan qulay muhitni shakllantirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish, shuningdek iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda kompleks nazorat yondashuvlarini ishlab chiqish⁹.

Rossiyalik olimlar N. A. Filippova va D. Yu. Makevnina soliq nazoratini keng ma'noda davlat moliyaviy siyosatini samarali amalga oshirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda soliq to'lovchilarning huquqlari bilan davlatning qonuniy manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan davlat tomonidan tartibga solish choralarining ajralmas qismi sifatida talqin qiladilar¹⁰.

T. Ya. Silvestrova, Yu. A. Sokolova va D. G. Nazarov esa soliq nazoratini boshqaruv faoliyatining muhim shakllaridan biri sifatida baholaydilar. Ularning fikriga ko'ra, soliq nazorati maqsadli yo'naltirilgan, aniq mazmunga ega bo'lgan va uni amalga oshirishning muayyan usullari bilan tavsiflanadigan mustaqil boshqaruv funksiyasi hisoblanadi. Olimlar ta'kidlashicha, aynan soliq nazorati orqali davlat budjeti daromadlarining muhim qismi — asosan soliqlar hisobidan shakllanadigan moliyaviy resurslar ta'minlanadi. Shu bilan birga, kameral soliq tekshiruvlari soliq organlariga taqdim etilgan deklaratsiyalar asosida amalga oshiriladi va bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Dastlabki bosqichlar ko'pincha avtomatlashtirilgan tarzda bajarilib, deklaratsiyalar hajmining katta qismini qamrab oladi¹¹.

N. V. Aleksandrovaning fikriga ko'ra, soliq organlari tomonidan soliqlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishning asosiy shakllari kameral va sayyor soliq tekshiruvlari hisoblanadi. Muallifning ta'kidlashicha, sayyor soliq tekshiruvlari soliq to'lovchining haqiqiy moliyaviy ma'lumotlari asosida amalga oshirilishi sababli soliq nazoratining samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Bunday tekshiruvlar, odatda, soliq to'lovchi faoliyat yuritayotgan hududda o'tkaziladi¹². Mazkur olim o'z tadqiqotlarida soliq nazorati samaradorligini baholash masalalariga ham e'tibor qaratib, soliq tekshiruvlarining samaradorligi ko'pincha qo'shimcha hisoblangan soliqlar, jarimalar va aniqlangan huquqbuzarliklar soni kabi ko'rsatkichlar asosida baholanishini qayd etadi¹³.

Soliq nazorati jarayonida soliq tekshiruvlarini o'tkazish metodologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada A. S. Nesterenko soliq nazorati tizimida tekshiruvlarni tashkil etishning aniq usullari va metodologiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Olimning fikriga ko'ra, soliq xizmati organlari tomonidan o'tkaziladigan kompleks soliq tekshiruvining metodikasi bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi lozim. Jumladan, auditdan oldingi dastlabki tahlilni amalga oshirish, soliq solinadigan bazani hisoblashning to'g'riligi va to'liqligini tekshirish hamda joyida o'tkaziladigan soliq tekshiruvlari natijalarini rasmiylashtirish kabi bosqichlar ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Shuningdek, muallif sayyor soliq tekshiruvlarini rejalashtirish jarayoni soliq to'lovchilarni tanlashga asoslangan ochiq va shaffof tizim bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday tekshiruvlar soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etilishi xavfi mezonlari asosida, shu jumladan barcha uchun ochiq bo'lgan mezonlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir¹⁴.

8 O'sha manba.

9 O'sha manba.

10 Шестакова Н.Н. Налоговые проверки в системе налогового контроля // Социально-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ. – 2018. – №1.

11 Сильвестрова Т.Я., Соколова Ю.А., Назаров Д.Г. Налоговый контроль и оценка его эффективности // Вестник Российского университета кооперации. – 2018. – №1(31).

12 Александрова Н.В. Налоговый контроль в системе налоговых отношений // Вестник Российского университета кооперации. – 2014. – №3(17).

13 O'sha manba.

14 Нестеренко А.С. Организация и проведение выездной налоговой проверки: методический подход // Налоги и налогообложение. – 2009. – №1.

Soliq tekshiruvlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarda S. N. Alexin va T. E. Ustinovlarning ilmiy qarashlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning fikriga ko'ra, aniqlangan soliq qonunchiligi buzilishi holatlari va natijada hisoblangan qo'shimcha summalar bo'yicha soliq nazoratining eng samarali vositalaridan biri joyida (sayyor) o'tkaziladigan soliq tekshiruvlari hisoblanadi. Kameral nazoratdan farqli ravishda, sayyor soliq tekshiruvlari soliq to'lovchining soliq potensialini to'liq va xolis baholash imkonini beradi¹⁵. Shu bilan birga, bunday tekshiruvlar soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan birlamchi hujjatlar va registrlar asosida soliq qonunchiligi buzilish holatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur mualliflar sayyor soliq tekshiruvlari jarayonida qo'llaniladigan bir qator nazorat usullarini ham ko'rsatib o'tadilar. Jumladan, soliq to'lovchining birlamchi buxgalteriya hujjatlari hamda soliq va buxgalteriya registrlarini o'rganish va tahlil qilish, soliq to'lovchidan zarur tushuntirishlar olish, daromad (foyda) olish uchun foydalaniladigan binolar va hududlarni tekshirish, guvohlarni so'roq qilish, soliq to'lovchiga tegishli mol-mulkni inventarizatsiyadan o'tkazish, hujjatlarni olish va zarur hollarda ekspertiza o'tkazish kabi usullar ushbu tekshiruvlarning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, zaruriyat tug'ilganda malakali mutaxassislarni jalb qilish ham muhim ahamiyatga ega. Olimlarning ta'kidlashicha, kameral soliq tekshiruvlaridan farqli ravishda, sayyor soliq tekshiruvlari soliq to'lovchiga tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma tayyorlash va uni topshirish bilan yakunlanadi¹⁶.

Ye. P. Peshkova va G. A. Korolevalar soliq nazoratini boshqaruv faoliyatining muhim shakllaridan biri sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, soliq nazorati maqsadga yo'naltirilgan, aniq mazmun va usullarga ega bo'lgan mustaqil boshqaruv funksiyasi sifatida ko'rib chiqilishi lozim¹⁷. Olimlarning ta'kidlashicha, keng ma'noda soliq nazorati samarali davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirish, milliy iqtisodiyotning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda davlat va mahalliy fiskal manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan davlat tomonidan tartibga solish choralari majmui hisoblanadi. Tor ma'noda esa soliq nazorati vakolatli organlar tomonidan soliqlar va yig'implarni joriy etish, hisoblash va undirish jarayonlarida qonuniylik hamda maqsadga muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan davlat nazorati sifatida talqin etiladi¹⁸. Mazkur olimlar ham soliq tekshiruvlarini soliq nazoratining eng keng tarqalgan va samarali shakllaridan biri sifatida baholaydilar.

Z. P. Gasieva va V. A. Kaytmazovalarning qarashlariga ko'ra, soliq nazoratining eng samarali va keng tarqalgan usullaridan biri soliq organlari tomonidan joylarda o'tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvlaridir. Bunday tekshiruvlar orqali soliq qonunchiligi buzilish holatlari aniqlanadi hamda zarur hollarda qo'shimcha soliq hisoblash imkoniyati yaratiladi. Mualliflarning fikricha, ushbu jarayon soliq to'lovchilar va davlat organlari o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli sayyor soliq tekshiruvlarining samaradorligi davlat moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega¹⁹.

A. P. Vusan va D. M. Chubarovalarning tadqiqotlariga ko'ra, kameral soliq tekshiruvlari soliq organlari mansabdor shaxslari tomonidan soliq qonunchiligida belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi. Bunday tekshiruvlar rahbarning alohida qarorisiz o'tkazilishi mumkin bo'lib, soliq deklaratsiyalari va boshqa hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab uch oy davomida soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, kameral soliq tekshiruvlari soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda soliq organlari ixtiyorida mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Olimlar kameral soliq tekshiruvining bir qator muhim xususiyatlarini ham ajratib ko'rsatadilar²⁰. Birinchidan, kameral tekshiruvlar soliq organi joylashgan hududda o'tkaziladi. Ikkinchidan, ushbu tekshiruvlar soliq deklaratsiyalari va soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi hamda deklaratsiya taqdim etilgan kundan boshlab uch oy ichida soliq hisob-kitoblarning to'g'riligi tekshiriladi. Uchinchidan, kameral soliq nazorati soliq organlarining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan ularning xizmat vazifalariga muvofiq ravishda, soliq organi rahbarining maxsus qarorisiz amalga oshirilishi mumkin. To'rtinchidan, ushbu tekshiruv soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hamda soliq organida mavjud bo'lgan hujjatlarni tahlil qilish asosida o'tkaziladi. Beshinchidan, soliq nazoratini amalga oshirish, jumladan kameral soliq tekshiruvlarini o'tkazish huquqi faqat soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlarida vakolat berilgan organlarga tegishli hisoblanadi²¹.

15 Alexin S.N., Ustinova T.E. Основные направления реализации прав налогоплательщиков при подготовке и проведении выездных налоговых проверок // Вестник НГИЭИ. – 2016. – №12(67).

16 O'sha manba.

17 Пешкова П.П., Королева Г.А. Оценка эффективности и направления развития налогового контроля // Вестник Таганрогского института управления и экономики. – 2018. – №2.

18 Пешкова П.П., Королева Г.А. Оценка эффективности и направления развития налогового контроля // Вестник Таганрогского института управления и экономики. – 2018. – №2.

19 Гасиева З.П., Кайтмазов В.А. Повышение эффективности проведения налоговых проверок // Вестник Московского университета МВД России. – 2019. – №2.

20 Вуцан А.П., Чубарова Д.М. Реформирование налогового контроля в рамках бюджетной политики государства // Финансовые исследования. – 2015. – №1(46).

21 O'sha manba.



Ta'kidlash joizki, yuqorida tahlil qilingan olimlarning ilmiy qarashlari asosan ilmiy maqolalar hamda alohida to'plamlarda e'lon qilingan materiallarga tayangan. Shu bilan birga, aynan soliq tekshiruvlari bilan bog'liq dissertatsion tadqiqotlar olib borgan olimlarning ilmiy izlanishlarini ham nazariy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Quyida ana shunday tadqiqotlar tahliliga murojaat qilamiz.

Jumladan, M. Suvorov o'zining dissertatsion ishida soliq tekshiruvlarining ma'muriy ish yuritishning o'ziga xos turi sifatidagi xususiyatlarini aniqlab bergan. Muallif soliq tekshiruvi tamoyillaridan ma'muriy ish yuritishda foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan, kameral soliq tekshiruvlarining xorijiy tajribasini tahlil qilgan hamda inson huquqlari manfaatlarini muvozanati va soliq nazorati samaradorligiga qo'yiladigan talablar nuqtayi nazaridan soliq qonunchiligini sayyor soliq tekshiruvlari asosida takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib bergan²².

D. Gotaidzening fikricha, soliq tekshiruvlarining samaradorligi deganda uning amaliy natijalari bilan uni o'tkazish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi nisbat tushunilishi lozim. Olim sayyor soliq tekshiruvlarini tashkil etish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida soliq to'lovchini to'g'ri tanlash, tekshiruvning tanlov mezonlariga muvofiqligi, nazoratga jalb qilingan malakali kadrlarni tanlash, mehnat qoidalariga rioya qilish, hududiy soliq organlari o'rtasida tezkor va aniq gorizontallikni yo'lga qo'yish, soliq nazorati ishtirokchilari tomonidan xizmat vazifalarini aniq va mas'uliyat bilan bajarish, hujjatlarni o'z vaqtida tayyorlash hamda boshqa tegishli organlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishni keltirib o'tadi. Shuningdek, muallif sayyor soliq tekshiruvlarining samarali tashkil etilishi turli darajadagi budjetlarni nafaqat qo'shimcha to'lovlar, balki jarimalar va penyalar hisobidan ham to'ldirish imkonini berishini ta'kidlaydi. Shu bois, sayyor soliq tekshiruvlari samaradorligini oshirish maqsadida soliq to'lovchilarni tanlash va soliq inspektorlarining faoliyatini baholash tizimini takomillashtirishga asoslangan konseptual yondashuvni joriy etish zarurligini ilgari suradi²³.

Iqtisodchi olimi Voronina Anjela Nikolaevna o'z tadqiqotlarida soliq organlarining nazorat faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Muallif innovatsiyalarni tasniflash guruhlarini mazmunini ushbu faoliyat turining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda soliq organlarining nazorat ishlariga tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan. Shuningdek, u soliq tekshiruvlarini boshqarish instrumentlari to'plami elementlarining tarkibiy tuzilishini shakllantirgan, soliq tekshiruvlarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha konseptual yondashuvni asoslagan hamda soliq organlarining nazorat faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqqan. Bundan tashqari, innovatsion tartib-qoidalar bloklarini ajratish orqali barcha elementlarni yagona tizimga birlashtirishga asoslangan soliq tekshiruvlarini boshqarish metodologiyasini taklif etgan.

Muallifning fikricha, boshqaruv tizimlarining o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirish va ularning samaradorligini monitoring qilishga qaratilgan kompleks boshqaruv tizimi, ya'ni kontrolling tizimisiz, soliq nazorati instrumentlarining elementlaridan samarali foydalanish qiyin²⁴. Bu yerda nazorat tushunchasi boshqaruv qarorlarini rejalashtirish, monitoring qilish, tahlil qilish va qabul qilish jarayonida menejrlarni axborot, tahliliy hamda uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning yaxlit tizimi sifatida talqin qilinadi. Boshqaruv vositasi sifatida kontrolling soliq tekshiruvlarining texnologik tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirish, monitoring qilish, aks ettirish va tahlil etish orqali soliq organlarining nazorat faoliyatini boshqarishning butun tizimini, shu jumladan turli vaqt darajalaridagi funksional bosqichlarini qamrab olish imkonini beradi.

M. Sadchikov esa ushbu masalaga boshqa nuqtayi nazardan yondashadi²⁵. Uning fikricha, soliq tekshiruvi soliq nazoratining asosiy shakli bo'lib, u soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha vakolatli organlarning protsessual harakatlari majmuidan iboratdir. Mazkur jarayon tekshirilayotgan shaxslarning hisobot ma'lumotlarini, soliq organlari qarorlarini hamda soliq to'lovchilar, yig'imlar to'lovchilar va soliq agentlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holati bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Olimning ta'kidlashicha, kameral soliq tekshiruvi joriy soliq nazorati shakli hisoblanadi, chunki u soliq to'lovchilar va boshqa shaxslar tomonidan soliq qonunchiligida yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini tezkor tarzda tekshirish imkonini beradi. Shu bois kameral soliq tekshiruvi amaldagi soliq nazoratini amalga oshirishga xizmat qiluvchi, tekshirilayotgan subyektlarning huquq va manfaatlarini ortiqcha cheklamagan holda tashkil etiladigan samarali nazorat shakli sifatida tavsiflanadi²⁶.

Mazkur yo'nalishdagi ilmiy tahlillarni davom ettirar ekanmiz, M. Podolyako tomonidan sayyor soliq tekshiruvlarini rejalashtirishning nazariy asoslari ishlab chiqilganligini ko'rish mumkin. Muallif soliq to'lovchilarni

22 Суворов М.А. Административно-процессуальная регламентация налоговых проверок. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2003.

23 Готайдзе Д.Н. Эффективность налогового контроля и пути ее повышения (на примере материалов выездных налоговых проверок). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Ростов-на-Дону, 2010.

24 Воронина А.Н. Инновационный механизм управления налоговыми проверками. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Уфа, 2011.

25 Садчиков М.Н. Камеральные и выездные налоговые проверки как формы налогового контроля. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Саратов, 2010.

26 O'sha manba.

tanlash tizimini shakllantirish asosida sayyor tekshiruvlarni rejalashtirishga qaratilgan nazariy yondashuvni taklif etadi. Uning tadqiqotida soliq to'lovchilarni tanlash mezonlari ayrim ko'rsatkichlar qiymatini baholash asosida guruhlangan. Bundan tashqari, soliq to'lashdan bo'yin tovlash ehtimolini aniqlash uchun soliq to'lovchining umumiy daromadlari o'zgarish sur'ati bilan soliq tushumlari o'zgarishi nisbatini ifodalovchi mezonlar tizimi ko'rsatkichi taklif etilgan. Shuningdek, soliq to'lovchilarni toifalari, jami daromadlari va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash asosida sayyor tekshiruvlarni rejalashtirish uchun soliq to'lovchilarni tanlash algoritmi ishlab chiqilgan. Muallif, shuningdek, hisoblangan qiymatlarning belgilangan standart ko'rsatkichlardan chetlanishini aniqlash asosida integratsiyalashgan ko'rsatkichdan foydalanib, soliq to'lovchilarni baholash va differensiallashtirish metodologiyasini ishlab chiqqan²⁷.

Mayorova Ilmira Mazgarovnaning tadqiqotlarida esa kameral soliq tekshiruvlarining statistik tadqiqot obyekti sifatidagi xususiyatlari ochib berilgan. Xususan, tekshiruvlarning predmeti, maqsadi va mazmunini tahlil qilish asosida soliq tekshiruvlarining statistik tadqiqot obyekti sifatidagi o'ziga xos jihatlari aniqlangan. Muallif kameral soliq tekshiruvining axborot modelini ishlab chiqib, uning tekshiruv natijalarini statistik kuzatishni tashkil etishdagi ahamiyatini asoslab bergan. Shuningdek, kameral tekshiruv natijalarini statistik kuzatishni tashkil etishga qo'yiladigan talablar shakllantirilgan hamda soliq organlarining avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida statistik kuzatuvni tashkil etish va tekshiruv samaradorligini baholash bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash sxemasi ishlab chiqilgan.

L. Sibagatullinaning tadqiqotlarida esa soliq qarzlari monitoringi hamda hududlar iqtisodiyotining strategik muhim tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish va davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida soliq nazorati samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqilgan. Muallif soliq to'lovchilarning investitsion faolligini rag'batlantirishda soliq mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimida soliq nazoratining mazmuni, o'rni va rolini ilmiy jihatdan asoslab bergan²⁸.

Soliq nazoratiga oid mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu yo'nalishda ham muhim ilmiy ishlanmalar mavjud. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori F. I. Isaev ta'kidlashicha, bugungi iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining jadallashuvi sharoitida xavflarni tahlil qilish dasturining qo'llanilishi katta ahamiyatga ega. Ushbu dastur asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholanib, ularning xavflilik darajasi aniqlanadi. Bu esa soliq organlariga xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati yuzasidan asosli va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv tadbirkorlik faoliyatiga ortiqcha to'sqinlik qiluvchi tekshiruvlar sonini kamaytirishga xizmat qiladi hamda xavflilik darajasi o'rta va yuqori bo'lgan subyektlar bo'yicha soliq tekshiruvlarini — kameral tekshiruv, sayyor tekshiruv va soliq auditini — maqsadli hamda samarali tashkil etish imkonini yaratadi²⁹.

Bevosita soliq nazoratini tashkil etish va amalga oshirish masalalariga bag'ishlangan dissertatsion tadqiqotlar olib borgan S. Nazarov soliq tekshiruvlarining turlariga quyidagicha ta'rif beradi: kameral soliq tekshiruvi — soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlari hamda uning faoliyati to'g'risidagi mavjud boshqa axborotlar asosida soliq organlari tomonidan qonunchilikka muvofiq o'tkaziladigan tekshiruv jarayonidir. Sayyor soliq tekshiruvi esa soliq organlari tomonidan soliqlarni hisoblash va to'lash sohasida soliq to'lovchilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarning bajarilishini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tekshiruv bo'lib, bunda hisob hujjatlari, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'lari harakati hamda soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq boshqa axborotlar tahlil qilinadi³⁰.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, soliq nazorati bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida soliq nazorati davlat moliyaviy nazoratining ajralmas qismi hamda iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositasi sifatida baholanadi.

Ikkinchidan, soliq tekshiruvlari soliq nazoratini amalga oshirishning eng samarali usullaridan biri sifatida talqin qilinadi va ularning samaradorligi soliq nazoratini tashkil etish mexanizmlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liq deb qaraladi.

Uchinchidan, soliq tekshiruvlarining samaradorligi ularni amalga oshirish bosqichlari, tashkiliy jarayonlar hamda nazorat mexanizmlarining mukammalligi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

To'rtinchidan, soliq tekshiruvlarini amalga oshirishda kameral tekshiruv turiga alohida e'tibor qaratish soliq to'lovchilarning faoliyatini masofadan turib tahlil qilish, soliq hisobotlarini tezkor baholash hamda soliq nazorati jarayonlarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

27 Подолько М.Н. Критериальная оценка налогоплательщиков для планирования выездных налоговых проверок. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Иваново, 2013.

28 Сибгатуллина Л.Р. Совершенствование налогового контроля в современных условиях. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Екатеринбург, 2008.

29 Isaev F.I. Soliqlarni tahlila-tahlil qilish metodikasi // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" elektron ilmiy jurnali. – 2021. – №3. – 367–377 b.

30 Nazarov S.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tekshiruvlarini takomillashtirish. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yirik korxonalarda soliq nazoratini raqamlashtirish hamda risk tahlili tizimlarini joriy etish soliq to'lovchilar faoliyatiga asossiz aralashuvlar ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi. Zamonaviy soliq nazorati shakllari nafaqat davlat budjeti tushumlarining barqarorligini ta'minlaydi, balki yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda ham muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, soliq nazorati tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, yirik korxonalarda soliq tekshiruvlarini tayinlash jarayonida inson omili ta'sirini minimallashtiruvchi hamda risk tahlili mezonlariga asoslangan raqamli algoritmlarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu soliq nazorati jarayonlarining shaffofligini oshirish hamda tekshiruvlarni obyektiv mezonlar asosida amalga oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, bevosita aralashuvsiz amalga oshiriladigan kameral soliq nazorati ulushini oshirish orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga nisbatan ma'muriy bosimni kamaytirish va soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish mumkin.

Uchinchidan, yirik soliq to'lovchilar bilan real vaqt rejimida ma'lumot almashish tizimini rivojlantirish, raqamli monitoring mexanizmlarini keng joriy etish hamda an'anaviy soliq tekshiruvlari ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish soliq nazorati tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 640 b.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. – М.: Издательство «Эксмо», 2007. – 864 с.
3. Покровский А. К. Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учебное пособие. – М.: Издательство «КноРус», 2011. – 160 с.
4. Becker K. F. The Informal Economy. – Stockholm: Swedish International Development Cooperation Agency (SIDA), 2004.
5. Аронов А., Кашин В. Налоги и налогообложение. – М.: Магистр, 2007.
6. Жалонкина И. Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской Федерации. – Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2012. – 14 с.
7. Андреева В. А. Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений. – Экономика. Интерактивная наука, №4 (14), 2017. – С. 136–140.
8. Кузнецов А. Л. Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект). – 2016. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://vasilievaa.narod.ru/zhurnal/>
9. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – Elektron manba: www.soliq.uz



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100